


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

## MAXSUS SON

---

<b>G.Xamidov</b>	
O'simliklar dunyosi biosferaning muhim va faol komponenti.....	218
<b>Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova</b>	
Ekologik ta'limni dunyo pedagogikasida rivojlanishi .....	221
<b>V.Abdurakhmanov</b>	
New directions in language learning: combination of online resources and blended learning .....	223
<b>S.Uraimov</b>	
O'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini to'rt darajali jismoniy mashg'ulotlar zinasi orqali oshirish usullari .....	226
<b>Z.Gapparov</b>	
Yosh futbolchilarning o'yin amplulariga individual psixologik holatini ta'siri.....	230
<b>J.M.Ishabayev</b>	
O'quv mashg'ulot guruhida shug'ullanuvchi futbolchilarning mashg'ulot jarayonidagi psixologik holatini taxlil qilish.....	235
<b>M.Azizov</b>	
"Bioimpedansometriya" yordamida 30-39 yoshli skandinavcha yurish bilan shug'ullanuvchilarning tana tarkibi tuzulishini o'rganish metodikasi.....	239
<b>D.Mavlanov, R.Nazarov</b>	
Shaxs ichki nizolari va ularning fanda o'rganilganlik holati .....	245
<b>M.Mirjamolov</b>	
Paralimpiya sport musobaqalariga zahira sportchilar tayyorlash uchun kinematik va psiko-fiziologik tavsiflari bo'yicha saralash tizimini ishlab chiqish.....	248
<b>Ш.Турсунов</b>	
Методика совершенствования физических показателей борцов.....	252
<b>X.Matnazarov</b>	
Ko'krakda krol usulida suzuvchi 11-13 yoshli sportchilar texnik tayyorgarligini takomillashtirish .....	257
<b>G.Xo'jamkeldiyev</b>	
Qisqa, o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilarni mashg'ulotlar davomida va so'ngida mushaklarni tiklashda maxsus aplikatorni qo'llash samaradorligi .....	261
<b>O.Xasanov</b>	
Tayanch-harakat tizimida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ippoterapiya mashg'ulotlari asosida aqli va jismoniy funksional holatini rivojlantirish.....	265
<b>B.Nabiev</b>	
Расчет пространственной зависимости температуры и температурной неустойчивости термоэлементов .....	270
<b>R.Pirnazarov</b>	
To'g'onli ko'llarda ro'y berishi mumkin bo'lgan toshqin xavfini baholashning genetik asoslari .....	277
<b>М.Ж.Есиркепов, А.К.Анарбаев, И.Б. Курманбаев, А.Р.Мусаева</b>	
Патриотическое воспитание молодежи через достижения в тренерской деятельности а.нурмаханова .....	281
<b>V.Abdurakhmanov</b>	
Alternativ so'roq gaplarning poetik jihatdan o'rganilishi .....	286
<b>A.Sultonov</b>	
Belbog'li kurashchilarning texnik-taktik tayyorgarligini takomillashtirish samaradorligi.....	288

**O'QUV MASHG'ULOT GURUHIDA SHUG'ULLANUVCHI FUTBOLCHILARNING  
MASHG'ULOT JARAYONIDAGI PSIXOLOGIK HOLATINI TAXLIL QILISH**

**АНАЛИЗ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ ФУТБОЛИСТОВ, ЗАНИМАЕМЫХ В  
ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ТРЕНИРОВОЧНОЙ ГРУППЕ В ТРЕНИРОВОЧНОМ ПРОЦЕССЕ**

**ANALYSIS OF THE PSYCHOLOGICAL STATE OF FOOTBALL PLAYERS ENGAGED IN  
THE STUDY TRAINING GROUP DURING THE TRAINING PROCESS**

Ishtayev Javlon Mavlonboyevich<sup>1</sup>

<sup>1</sup>P.f.d. (DSc) dotsent

**Annotatsiya**

*Mualif ushbu maqolada Sport takomillashuv guruhida futbolchilarni psixologik tayyorlashda voximalilik holatini o'rganishda Ch.D.Spielbergerning reaktiv voximalilik shkalasidan foydalanib ilmiy metodik jihatlarini eksperimental asosida yoritib bergen.*

**Аннотация**

*В данной статье автор освещает научно-методические аспекты психологической подготовки футболистов с использованием шкалы реактивной тревожности Ч.Д.Спилбергера на экспериментальной основе.*

**Abstract**

*In this article, the author highlights the scientific and methodological aspects of the psychological training of football players in the Ch.D.Spielberger reactive anxiety scale on an experimental basis.*

**Kalit sozlar:** futbolchi, voximalilik daraja, faoliyat, sport, psixologik xarakteristika, ekstremal, jismoniy mashqlar.

**Ключевые слова:** футболист, состояния тревожности, деятельность, спорт, психологическая характеристика, экстремум, упражнения

**Key words:** football player, state of anxiety, activity, sports, psychological characteristics, extreme, exercise.

**KIRISH**

Respublikamizda iqtidorli futbolchilarni tanlash va tayyorlashning samarali tizimini yaratish, milliy terma jamoalar va professional futbol klublari uchun sifatli sport zaxirasini shakllantirish, xalqaro talab va standartlar asosida futbol bo'yicha trener va hakamlarni tayyorlash borasida muhim ishlar amalga oshirilmoqda. Iste'dodli va salohiyatlari futbolchilarni tanlash, futbolimizini qo'llab quvvatlash va rivojlantirish, yosh futbolchilarda professional ishtiyoq, mahorat hamda ko'nikmalarni yuksaltirish, mahoratli charm to'p ustalaridan mamlakat klublari va terma jamoalariga ishonchli zaxira shakllantirishga muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu zaruriyat asosida futbolchilarning texnik-taktik tayyorgarlik darajasini yuqori saviyada bo'lishi muhim omil sanaladi. Yurtimizda futbolchilarni tayyorlash va taktik harakatlarni rivojlantirishning zamonaviy usullarini tatbiq qilish jarayoni tashkil etilgan. Biroq, futbolchilarning psixologik tayyorgarlik tomonlarini nazorat qilish va rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari deyarli amalga oshirilmagan. Bu holat shundan dalolat beradiki, mazkur soha bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha ilmiy ishlar sohani yanada rivojlantirish va uning ilmiy negizlarini shakllantirishga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 dekabrdagi "O'zbekistonda futbolni rivojlantirishning mutlaqo yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida", gi farmonlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

Shaxsning o'ziga xos tomonlaridan biri, bu uning individualligi, ya'ni, faqat ungagina xos bo'lgan va hech kimda takrorlanmaydigan xususiyatlar yig'indisidir.

Shaxsning individual xususiyatlarini tuzilishini tushunish va hisobga olish sport amaliyotida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etadi. Sportchi shaxsining individual xususiyatlarini chuqur bilish va tushunish orqaligina uning barcha imkoniyatlarini yanada rivojlanishini ta'minlash va ulardan samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqotchi psixologlarning champion va Olimpiada o'yinlari sovrindorlari bo'lgan sportchilarning individual xususiyatlarini o'rganish borasidagi tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, ularning shaxsiyati uchun eng umumiy va muhim bo'lgan xususiyatlar quyidagilardan iborat: yuqori

darajadagi psixik — emotsiyal barqarorlik, xarakter mustahkamligi, o'ziga ishonch, onglilik, o'zini nazorat qila bilish, murakkab vaziyatlarni mustaqil baholay bilishi, qat'iyat va matonat, tashabbuskorlik va harakatlardagi jasorat, yetakchilik, tavakkalga moyillik, novatorlik, kashfiyotga o'chlik, samimiy muloqot qilish.

Bir qator tadqiqotlarda yutuqlar motivatsiyasi bilan sportchining shaxsiy xususiyati bo'lgan voximalilik o'rtasidagi muayyan aloqadorlikning mavjudligi aniqlangan.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Vaximalilik — bu individning o'zi tushgan vaziyatdagi jismoniy yoki ijtimoiy xavfni o'ta bo'rttirib tasavvur qilishi va uning natijasida o'zida salbiy psixik - emotsiyal holatlarni (qo'rquv, hadiksirash, xavotirlanish va xokazolar) keltirib chiqarishga moyilligidir. Shaxsga xos bo'lgan bu xususiyat, ayniqsa musobaqa oldidan sportchilarda xayajonlanishning ortib ketishiga sabab bo'ladi. Biroq, sportchi mutlaqo xavotirlanishdan holi bo'lishi kerak degani emas. Vahima reaksiyasini organizmning mas'uliyatli va tarang vaziyatga tabiiy moslashuv jarayoni sifatida baholash lozim. Ma'lum daraja va me'yorida bo'lsa ushbu reaksiya ijobiy hisoblanadi. Faqat haddan tashqari voximalilik sportchi faoliyatining yomonlashuviga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli yuqori voximalilikka moyil sportchilarning psixik xolatidagi o'zgarishlarni doimiy ravishda nazorat qilib borish o'ta muhimdir. Vaximalilikning 2 ta turini farqlashadi: ulardan birinchisi muayyan tashqi vaziyatlar bilan bog'liq bo'lgan vaziyatli voximalilik bo'lsa, ikkinchisi shaxsning o'ziga hos bo'lgan stabil – barqaror (tug'ma) voximalilik xususiyatidir. Vaximalilik ekstremal vaziyat arafasida yoki yuz berishidan ancha ilgari oldinda turgan xavf – xatarni "Men sezib turibman - bugun yutqazaman!" tarzida bashorat qilish tufayli paydo bo'lishi mumkin. Bunday voximani fan tilida antitsipir (oldindan paydo) voxima deb ataladi [1;2;3].

Vaximali holat samarali faoliyatga intilish sur'atiga (motiv kuchiga) bog'liq bo'ladi. Motiv qanchalik kuchli bo'lsa, sportchidagi vahima hissi ham shunchalik yuqori bo'ladi. Shu sababli ham eng mashxur sportchilar odatda voximalilik hissiga moyil bo'ladilar.

Yuqori malakali sportchilarning shaxsiyatidagi o'ziga hos xususiyatlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, sportchilarning yuqori natijalarga erishishlarida ular xarakteriga xos bo'lgan quyidagi sifatlar o'ta muhim ahamiyat kasb etadi, xususan: onglilik, maqsad sari intilish, o'z – o'zini boshqara olish, halolilik, mexnatsevarlik, matonatlilik, oriyatlilik, jamoa oldidagi mas'uliyatni his etish. Ayni shu sifatlari tufayli ham sportchilar uzoq vaqt davom etadigan mashqlardagi qiyinchiliklarga bardosh beradilar va eng yuqori darajadagi musobaqlarda o'z vatanining sport sha'nini himoya qilib, olamshumul g'alabalarni qo'lga kiritadilar. [4;5;6]

Musobaqada ishtirok etishdan maqsad g'alabaga erishish, yoki sportchi shu paytgacha erishgan yutuqlar darajasidan qat'iy nazar natijalarni yaxshilashdan iboratdir. Bu aksariyat hollarda juda qisqa vaqt ichida kishidan nihoyatda katta imkoniyatlarni namoyish qilishni talab etuvchi ekstremal vaziyatni yuzaga keltiradi. Musobaqlarda yuqori natijalarni, ko'rsatkichlarni qo'lga kiritishga intilish sportchining sport yutuqlari darajasidan, tayyorgarligi darajasidan va boshqa omillardan qat'iy nazar namoyon bo'ladi. [6;7]


Futbolchini musobaqaga yuqorida tilga olingan maqsadlar bilan tayyorlash undan yuqori darajali psixik zo'riqishni talab qiladi. Shu sababli futbolchining asab tizimi oldiga, uning jismoniy, psixik sifatlarini rivojlantirish hamda futbolchi shaxsining ma'naviy tomonlariga katta talablar qo'yildi.

Tadqiqotlarga jami 70 nafar futbolchilar jalb etildi. Tadqiqotlar jarayonida olingan natijalar quyidagi rasmdi yaqqol ifodalangan.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

**Tadqiqotning tashkil etilishi.** O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti futbol yo'naliishida tahsil olayotgan 3 bosqich talabalarida 2023-yil oktyabr dekabr oylarida olib borildi.

Tadqiqotlarga jami 70 nafar futbolchilar jalb etildi. Tadqiqotlar jarayonida olingan natijalar quyidagi rasmdi yaqqol ifodalangan.



**1-rasm. Futbolchilarning tadqiqot boshida va yakunidagi reaktiv vohimalilik darajalari**

Yuqoridagi rasmdan ko'rinish turibdiki 70 nafar respondentlardan tajriba boshida 14 nafar 20% respondentlar vohomalilik darajasining optimal ko'rsatkichini qayd etishgan bo'lsa, tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar 30 nafari yani 43 % yaxshilanganligini ko'rish mumkin. Optimal darajadan o'ta yuqori va past ko'rsatkichlar tajriba boshida 29 nafar jami 43 foyzni tashkil etgan bo'lsa. Tadqiqot yakunida ushbu ko'rsatkichlar 15 nafargacha 22 % qisqorganligini yuqoridagi rasmdan yaqqol ko'rish mumkin.

Futbolchilarning reaktiv voximalilik darajalari nimanig hisobiga ko'tariladi yoki pasayib ketadi.

1. Futbolchining tayyorgarligi. Sportchi o'z oldida turgan musobaqaga qanchalik yaxshi tayyorgarlik ko'rgan bo'lsa, u o'zini shunchalik ishonchli his qiladi, uning psixik holati ham optimal darajada bo'ladi, yaxshi tayyorgarlik ko'rmagan futbolchida esa buning aksi kuzatiladi. Bunday futbolchi nihoyatda qattiq hayajonlanadi, xavotirga tushadi.

2. Musobaqalashuv tajribasi. Futbolchi turli miqyosdagi musobaqlarda qancha ko'p qatnashgan bo'lsa uning shaxsiga xos ijobjiy sifatlar shunchalik yaxshi namoyon bo'ladi. Biroq bunda futbolchining jismoniy, texnik, taktik, nazariy va psixologik tayyorgarligini o'zida mujassam etgan sport tayyorgarligi darajasi ham katta rol o'ynaydi.

3. Musobaqalar miqyosi. Musobaqlarning miqyosi qanchalik baland bo'lsa, futbolchilardagi psixik, zo'riqish ham shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki futbolchining musobaqa faoliyati natijalarining shaxsiy va ijtimoiy ahamiyati, uning "g'alabasi" yoki "mag'lubiyati", futbolchi yoki jamoaning, davlatning ijtimoiy maqomi va obro'si oshishiga ta'sir ko'rsatadi. Albatta zo'riqishning intensivligi futbolchining oldiga qo'yan vazifalariga ham bog'liqdir.

4. Emotsional holatlarning sur'ati futbolchilarning musobaqa davomidagi motivlari darajasiga bog'liq bo'ladi, bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Motivatsiyalar shaklining xilma-xilligi futbolchining shaxsiy xususiyatlariga ham, shuningdek musobaqa ishtirokchilarining sport natijalarining ijtimoiy ahamiyatiga ham bog'liq bo'lishi mumkin. Sport tayyorgarliklari tizimida musobaqada ishtirok etish motivini shakkantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Motivning ijtimoiy ahamiyati qanchalik yuqori bo'lsa, hamda futbolchi tomonidan yaxshi anglab yetilsa, futbolchining yuqori sport natijalarini qo'lga kiritishiga, musobaqlarda g'alabani qo'lga kiritishiga zarur bo'lgan sharoit shunchalik yaxshiroq yaratilgan bo'ladi.

5. Musobaqa ishtirokchilarining tarkibi. O'z kuchlariga ko'ra teng raqiblar musobaqalashganda vaziyatlar yanada qizg'in tus olib, futbolchilarning emotsiyal zo'riqishlari yuqori darajaga yetadi. Agar musobaqalashayotgan tomonlarning tayyorgarlik darajalari bir-biridan sezilarli farq qilsa, emotsiyal zo'riqish ham shu qadar past bo'ladi.

6. Musobaqlarni tashkil etish va jihozlash shart-sharoitlari. Odatda musobaqa yomon tashkil etilsa, hakamlar noto'g'ri ish tutsalar, emotsiyal zo'riqishning kuchayishi va aggressiv, tajovuzkor his-tuyg'ularning paydo bo'lishi yuz beradi. Bundan tashqari aggressiv his-tuyg'ularning paydo bo'lishiga tomoshabinlar sonining, ayniqsa musobaqalashayotgan futbolchilarga nisbatan do'stona munosabatda bo'lmayotgan tomoshabinlar sonining katta bo'lishi ham sabab bo'ladi.

7. Emotsional zo'riqishning kelib chiqishi futbolchi shaxsining individual xususiyatlariiga ham bog'liqdir. Bunga quyidagilar kiradi: asab turi, temperament, shaxsning xarakteri, futbolchining irodaviy va ma'naviy rivojlanish darajasi.

8. O'z-o'zini tartibga solish usullarini egallaganligi darajasi. Agar futbolchi o'z-o'zini tartibga solish usullarini egallagan bo'lsa, bu uni turli noxush vaziyatlarda himoya qiluvchi ichki himoya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, stress holati yuzaga kelganda yoki musobaqa jarayonida ko'plab salbiy omillar paydo bo'lganda tezkorlik bilan o'z vaqtida ularni bartaraf eta oladi.

### XULOSA

Xulosa qilib aytganda musobaqa qadim-qadimdan pedagogika va psixologiya sohasida inson faoliyatini rag'batlantiruvchi omil sifatida e'tirof etib kelingan. Musobaqaning bunday rag'batlantiruvchi ta'sirini o'rganishga bir qator psixologik tajribaviy tadqiqotlar ham bag'ishlangan.

Sport faoliyatida musobaqalarning rag'batlantiruvchi ta'siri azal-azaldan ma'lum va buni qo'shimcha tarzda isbotlashning hojati yo'q. Chunki odatda futbolchilar aynan musobaqalashuv jarayonidagina eng yuqori ko'rsatkichlarga erishganlar. Jahan championatlari va Olimpiya o'yinlaridagi jahon rekordlarining o'rnatilishi ham yuqoridagi fikrimizning dalilidir.

Har bir vazifa, har bir qaror sportchining eng yuqori imkoniyatlari darajasidan kelib chiqib belgilanishi va zinhor bu imkoniyatlardan yuqori vazifalarni qo'yish mumkin emas. Biroq, bu degani musobaqa oldidan trenerlar futbolchilar oldiga g'alaba qozonishni vazifa qilib qo'yishi mumkin bo'lmaydi, degani emas. G'alabani maqsad qilib belgilash ustanovkasi har qanday sport chiqishining bosh shartidir. Bunday maqsad bo'limasa musobaqalar ham o'z mazmunini yo'qotgan bo'lar edi. Ushbu jarayonda futbolchi oldiga qo'yilayotgan maqsad va vazifalar, o'zining real asosidan uzoqlashmasligi va psixologik jixatdan o'ta puxta ishlangan bo'lishi kerak. Tushunarli, ishonarli maqsad, aniq ifodalangan va puxta ishlangan vazifa musobaqa jarayonida futbolchining bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etishi uchun optimal sharoitlar yaratadi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

- Горбунов Г.Д. Психопедагогика спорта, изд. «советский спорт» М, 2006
- Уэйнберг Р.С., Гоулд Д. Основы психологии спорта и физической культуры. киев, олимпийская литература, 2001
- Gapparov Z.G. Sport psixologiyasi. Darslik, -Toshkent: «Mehridaryo», – 2011.
- Gapparov Z.G., Mavlonboyevich, I. J., & Xamidjonovich, X. O. (2022). Sport musobaqalarining psixologik hususiyatlari. *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(14), 284-289.
- Иштаев, Ж. М. (2022). Мактаб ёшидаги қызларнинг портлаш қобилият кўрсаткичлари ва уларнинг таҳлили (1-11 синфлар мисолида). *Fan-Sportga*, (1), 46-48.
- Гаппаров, З. Г., Иштаев, Ж. М., & Хасанов, О. Х. (2022). Мактаб ёшидаги ўқувчиларнинг портлаш қобилият кўрсаткичлари орқали спорт турларига йўналтириш. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(11), 495-500.
- Гаппаров, З. Г., Иштаев, Ж. М., Хасанов, О. Х., & Хасанов, О. А. (2022). Сущность психологической подготовки. *Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS)*, 2(11), 483-488.